

Date: 7th June-2026

XORAZM VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH

Kurbanbayev Shohruhmirzo Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti "Iqtisodiyot" fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Hozirgi zamonaviy dunyoda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi o'zining nafaqat atrof-muhit muhofazasi va ekologik mo'tadillikni ta'minlashning asosiy yechimi sifatida qaralmoqda, balki ushbu tushuncha yurtimiz va uning viloyatlari, xususan Xorazm viloyatida iqtisodiy barqarorlikni va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng muhim omili ekani ilmiy tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topmoqda. Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyot tendensiyalari orqali Xorazm mintaqasining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashning bir qancha ilmiy tasdiqlari, uning tarkibiy qismlari va hududda yashil mexanizmlarni joriy qilish bo'yicha amaliy takliflar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror iqtisodiy o'sish, hududlar iqtisodiyoti, yashil texnologiyalar, yashil ish o'rinlari, muqobil energiya, chiqindilarni boshqarish, organik mahsulotlar.

KIRISH

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, aholi turmush darajasining oshishi bu mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish doirasida turli tarmoq va sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasining ko'rsatkichidir. Global iqlim o'zgarishi va resurslarning cheklanganligi sharoitida iqtisodiy o'sishga erishish nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlar (YAIM hajmi) bilan, balki ekologik muvozanatni saqlash, ya'ni "yashillik" mezonlari bilan baholanmoqda.

Xorazm viloyati o'zining geografik joylashuvi, agrar salohiyati va ekologik o'ziga xosligi (Orolbo'yi hududi hisoblanis hi) sababli yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga juda muhtoj mintaqalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish oldimizga qo'yilgan bosh maqsaddir. Ushbu maqsadga erishish Xorazm viloyatida tabiiy resurslarni tejash, ekologik xavflarni kamaytirish va innovatsion yashil texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqada barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va uning mazmun-mohiyatini yoritishda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlariga tayaniladi. Iqtisodiy o'sish nazariyalarining asoschilari bo'lgan Adam Smith, Simon Kuznets, Robert Solow va MacMillanlarning ishlarida resurslardan unumli foydalanish va iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligi o'rganilgan. Ayniqsa, Robert Solow o'sish faqat ishlab chiqarish texnologiyalarini doimiy yangilash hamda tugaydigan resurslarni qayta tiklanadigan manbalarga almashtirish orqali mumkinligini isbotlagan.



Date: 7th June-2026

Yashil iqtisodiyot mexanizmlarini hududlar va mintaqalar miqyosida rivojlantirish muammolari xorijlik tadqiqotchilardan D. V. Manturov tomonidan ko'rib chiqilgan. O'zbekistonda esa iqtisodiy o'sish, hududiy barqarorlik va yashil iqtisodiyotning uzviy bog'liqligi A. O'lmasov, A. Vahobov, A.Sh. Bekmurodov, U.V. G'afurov va A. Mo'minov kabi iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali Xorazm viloyatida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash yuzasidan olib borilgan ushbu tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy-statistik tahlil, monografik kuzatuv, qiyoslash, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Mintaqaning ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari xorijiy va mahalliy olimlarning barqaror rivojlanish konsepsiyalari asosida baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun birinchi navbatda an'anaviy iqtisodiy o'sish va barqaror o'sish o'rtasidagi farqlarni hamda ularning yashil mezonlarini aniqlab olish zarur.

Iqtisodiy o'sish - muayyan davr mobaynida tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmining ko'payishi bo'lib, u ko'proq YAIM ko'rsatkichlarida aks etadi.

Barqaror iqtisodiy o'sish - iqtisodiy samaradorlik bilan birga ijtimoiy adolat va atrof-muhit muhofazasini ham hisobga olgan, tabiatning qayta tiklanish qobiliyatiga zarar yetkazmasdan erishiladigan uzoq muddatli ijobiy rivojlanishdir.

Xorazm viloyatining barqaror iqtisodiy o'sishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilganimizda, ularni mintaqaning innovatsion salohiyati, investitsion jozibadorligi (progressiv omillar) hamda Orolbo'yi mintaqasining ekologik inqirozi va suv resurslari tanqisligi (regressiv omillar) kabi qismlarga ajratish mumkin. Ekologik omillarning salbiy ta'sirini yumshatish mintaqada "Yashil iqtisodiyot" mexanizmlarini tezkor joriy etishni talab qiladi.

Yashil iqtisodiyot - past uglerodli, resurslardan tejamkor va ijtimoiy inklyuziv iqtisodiyotdir. Xorazm viloyatida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari va mexanizmlari joriy qilinishi lozim:

1. Tiklanadigan va muqobil energiya manbalarini o'zlashtirish: Xorazm viloyatida quyoshli kunlarning ko'pligi hududda quyosh panellari va fotoelektr stansiyalarini keng joriy etish orqali an'anaviy energiya sarfini kamaytirish va energiya xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi.

2. Suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish: Viloyat qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan bo'lib, Amudaryoning quyi oqimida joyhazon. Shu sababli, sug'orishda tomchilatib va yomg'irilatib sug'orish kabi yashil texnologiyalarni joriy qilish suv isrofini keskin kamaytiradi.

3. Qishloq xo'jaligida "Organic" dehqonchilikni rivojlantirish: Kimyoviy o'g'itlar o'rniga ekologik toza o'g'itlardan foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va



Date: 7th June-2026

jahon bozorida xaridorgir bo'lgan ekologik toza (organic) meva-sabzavotlar yetishtirish orqali eksport salohiyatini va daromadlarni oshirish mumkin.

4. Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash tizimi: Ma'lumki, chiqindilarning 60-80 foizi qayta ishlashga yaroqli xomashyo hisoblanadi. Viloyatda polimer, qog'oz va plastik chiqindilarini saralash va qayta ishlash korxonalarini ko'paytirish orqali ham ekologik tozalikka, ham yangi yashil ish o'rinlariga erishiladi.

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida belgilangan aholi jon boshiga YAIM hajmini oshirish va barqarorlikni ta'minlash vazifalari aynan mana shunday yashil mexanizmlarni mintaqaviy darajada joriy etish orqali amalga oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bugungi kunning strategik zaruriyatidir. Olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Xorazm viloyatining agrosanoat majmuasida suv tejovchi va yashil texnologiyalarni qo'llashni davlat tomonidan subsidiyalash tizimini yanada kengaytirish.

Hududda yashil energetika (ayniqsa quyosh energetikasi) ulushini oshirish va uy-joy kommunal xo'jaligida energiya samaradorligini taminlash.

"Yashil ish o'rinlari"ni yaratish, ya'ni ekologik xizmat ko'rsatish va chiqindilarni qayta ishlash klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida ekologik madaniyat va yashil iste'mol tamoyillarini keng targ'ib qilish.

Yashil iqtisodiyotga o'tish Xorazm viloyatida nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki Orolbo'yi hududidagi ekologik inqirozni yumshatib, aholi farovonligini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. – T., 2017.
2. Adam Smith. The Wealth of Nations. – 1776.
3. Simon Kuznets. Economic Growth of Nations. – 1971.
4. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T., 2014.
5. Solow R. Growth Theory and After. Nobel Prize Lecture, 1987.
6. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) hisobotlari.

